# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot xizmat)larining umumiy hajmi 11 259,7 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 104,3 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 10 965,9 mlrd. so‘mni (104,3 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd. so‘mni (100,2 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 90,3 mlrd. so‘mni (102,1 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari 203,4 mlrd. so‘mni (109,4 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi (mlrd.so‘m)**



**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning o‘sish sur‘atlari**




Xususan, yuqori o‘sish sur‘ati Tuproqqal‘a (112,6 foiz), Xiva (106,0 foiz) va Gurlan (105,7 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Xiva sh. (100,1 foiz) va Urganch sh.(101,6 foiz) shaharlarida kuzatildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Qo‘shko‘pir tumanida - 11,4 foiz, Urganch tumanida - 11,3 foiz, Xonqa tumanida - 10,3 foiz, Shovot tumanida -10,0 foiz, Bog‘ot, Gurlan va Hazorasp tumanlarida -9,6 foizni tashkil etdi. Xiva shahri -0,4 foiz, Urganch shahri - 2,2 foiz va Tuproqqal‘a tumani- 2,5 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,4 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida 2024-yilning yanvar- iyun oylarida 10 815,0 mlrd. so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 113,0 foizni va chorvachilik mahsulotlari 101,4 foizni tashkil qildi.

**2024- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2024- yil yanvar-iyun oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 77,7 foizini (2023- yil yanvar- iyun oylarida – 80,3 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 17,8 foizi ishlab chiqarilgan (2023- yil yanvar- iyun oylarida 15,1 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 4,5 foizi (2023- yil yanvar- iyun oylarida – 4,6 foiz) ishlab chiqarilgan.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi




## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida 10 815,0 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 2 886,7 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 26,7 foizi dehqonchilik, 7 928,3 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 73,3 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog‘ot tumani (34,5 foiz), Xiva shahri (30,0 foiz) va Yangibozor tumanida (29,2 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida bu ko‘rsatkich 3,7 foiz bo‘lib, dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (96,3 foiz), Qo‘shko‘pir tumanida (78,4 foizi), Gurlan tumanida (78,0 foiz) qayd etildi.

**Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi**




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2024- yilning yanvar- iyun oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Tuproqqal‘a tumanida (27,9 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,4 foizi) va Xiva shahrida (98,1 foizi), qishloq

xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo'shko'pir tumanida (15,4 foizi) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich esa Bog'ot tumanida (12,9 foizi), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'shko'pir tumanida (68,7 foizi) hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,6 foizi) va Hazorasp tumanida (1,4 foizi) qayd etildi.



**Dehqonchilik.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 2 886,7 mlrd. so'mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 26,7 foizini tashkil qildi. 2023- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 1 545,2 mlrd.so'mni (126,1 foiz), dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1 163,6 mlrd.so'mni (99,7 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 177,9 mlrd so'mni (109,0 foiz) tashkil qildi.

**Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



**Hosil yig'imi.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 393 290 tonna boshoqli don (126,9 foiz), shundan 386 850 tonna bug'doy (127,2 foiz), 71 537 tonna kartoshka (103,8 foiz), 103 778 tonna sabzavot (103,6 foiz), 10 640 tonna poliz (110,8 foiz), 39 729 tonna meva va rezavorlar (105,6 foiz), 1 250 tonna uzum (109,1 foiz) yetishtirildi.

**2024- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | *o'sish sur'ati, %* |
|---|---|---|
| **Boshoqli don, *tonna*** | **393 290** | **126,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 299 626 | 136,8 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 78 064 | 102,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 15 600 | 107,0 |
| **Bug'doy, *tonna*** | **386 850** | **127,2** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 293 850 | 137,3 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 78 064 | 102,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 14 936 | 108,3 |
| **Kartoshka, *tonna*** | **71 537** | **103,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 21 724 | 109,8 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 48 106 | 100,8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1 707 | 123,3 |
| **Sabzavot, *tonna*** | **103 778** | **103,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 21 004 | 114,6 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 71 924 | 100,1 |

| | miqdori | o‘sish sur‘ati, % |
|---|---|---|
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 10 850 | 109,3 |
| **Poliz, *tonna*** | **10 640** | **110,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 8 166 | 114,3 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 2 345 | 100,3 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 129 | 106,6 |
| **Meva va rezavorlar, *tonna*** | **39 729** | **105,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 12 312 | 119,2 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 27 236 | 100,3 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 181 | 116,8 |
| **Uzum, *tonna*** | **1 250** | **109,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 691 | 115,0 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 547 | 102,4 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 12 | 109,1 |



**Chorvachilik.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 7 928,3 mlrd so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 101,4 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 374,3 mlrd so‘mni (112,4 foiz), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 7 242,5 mlrd so‘mni (101,0 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 311,5 mlrd so‘mni (98,9 foiz) tashkil qildi.

**Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)**




2024 - yilning 1 – iyul holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,4 foizni (jami 962,2 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan, sigirlar 101,3 foizni (361,9 ming bosh), qo‘y va echkilar 102,8 foizni (494,6 ming bosh), otlar 102,0 foizni (5,7 ming bosh), parrandalar 103,5 foizni (7062,4 ming bosh) tashkil qildi.

**Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi**
**2024- yilning 1- iyul holatiga**




Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 91,6 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,5 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 81,7 foizni tashkil etdi.

**2024- yil yanvar - iyun oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi**



## 2024- yil 1- iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, %* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **962,2** | **101,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 79,1 | 107,5 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 868,8 | 100,9 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 14,3 | 104,6 |
| ***ulardan:* sigirlar** | **361,9** | **101,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 32,9 | 109,7 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 323,5 | 100,4 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 5,5 | 109,9 |
| **Qo‘y va echkilar** | **494,6** | **102,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 88,1 | 108,8 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 372,8 | 101,0 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 33,7 | 108,2 |
| **Otlar, *bosh*** | **5650** | **102,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 838 | 109,5 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 4739 | 100,5 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 73 | 117,7 |
| **Parrandalar** | **7062,4** | **103,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 1176,1 | 115,9 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 3926,3 | 101,0 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1960,0 | 102,0 |

**2024- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | *o'sish sur'ati, %* |
|---|---|---|
| **Go'sht (tirik vaznda),** ***tonna*** | **98 491** | **101,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 3 184 | 111,3 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 87 074 | 101,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 8 233 | 101,0 |
| **Sut,** ***tonna*** | **570 465** | **101,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 27 904 | 110,9 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 539 953 | 100,7 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 2 608 | 85,9 |
| **Tuxum,** ***ming dona*** | **244 766** | **100,2** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 24 978 | 109,6 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 175 003 | 102,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 44 785 | 88,8 |
| **Jun,** ***tonna*** | **658** | **103,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 92 | 109,5 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 543 | 101,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 23 | 127,8 |
| **Qorako'l teri,** ***dona*** | **6 084** | **102,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklarida | 602 | 112,5 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida | 5 405 | 101,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 77 | 120,3 |

| | miqdori | o‘sish sur‘ati, % |
|---|---|---|
| **Pilla, *tonna*** | **2523,0** | **116,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 982,7 | 136,7 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | - | - |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1540,3 | 107,1 |
| **Baliq, *tonna*** | **8450,5** | **110,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklarida | 6011,4 | 107,0 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida | 623,2 | 101,5 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida | 1815,9 | 125,3 |

2024- yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1 919,4 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning tegishli davriga nisbatan 123,3 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 17,8 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)**







chorvachilik dehqonchilik

2024- yilning 1- yanvar holatiga fermer xo‘jaliklarida 79,1 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 32,9 ming bosh sigir, 88,1 ming bosh qo‘y va echki, 838 bosh ot, 1176,1 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2023 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 107,5 foizni, shu jumladan, sigirlar 109,7 foizni, qo‘y va echkilar 108,8 foizni, otlar 109,5 foizni, parrandalar 115,9 foizni tashkil qildi.

**2024 - yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *yanvar-iyun* | | | | *2023- yanvar-iyun oylariga nisbatan foiz hisobida* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *2023- yil* | | *2024- yil* | | |
| | *tonna* | *umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | *tonna* | *umumiy hajmidagi ulushi, foiz* | |
| Jami don | 219 631 | 70,7 | 300 039 | 76,2 | 136,6 |
| Kartoshka | 19 794 | 28,7 | 21724 | 30,4 | 109,8 |
| Sabzavot | 18 324 | 18,3 | 21004 | 20,2 | 114,6 |
| Poliz | 7 143 | 74,4 | 8 166 | 76,7 | 114,3 |
| Meva | 10 330 | 27,5 | 12 312 | 31,0 | 119,2 |
| Uzum | 601 | 52,4 | 691 | 55,3 | 115,0 |
| Go‘sht, tirik vaznda | 2 861 | 2,9 | 3 184 | 3,2 | 111,3 |
| Sut | 25 170 | 4,5 | 27 904 | 4,9 | 110,9 |
| Tuxum, *ming dona* | 22 794 | 9,3 | 24 978 | 10,2 | 109,6 |
| Jun, *tonna* | 84 | 13,2 | 92 | 14,0 | 109,5 |
| Qorako‘l, *dona* | 535 | 9,0 | 602 | 9,9 | 112,5 |
| Asal, *tonna* | 82,8 | 18,0 | 95,7 | 20,0 | 115,6 |
| Baliq, *tonna* | 5616,4 | 73,1 | 6011,4 | 77,1 | 107,0 |

## 2024- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni

| *Shahar va tumanlar nomi* | *Fermer xo‘jaliklari* | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar* | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar* |
|---|---|---|---|
| Bog‘ot | 361 | 2 | 65 |
| Gurlan | 429 | 4 | 203 |
| Qo‘shko‘pir | 424 | 1 | 56 |
| Urganch | 375 | 5 | 103 |
| Hazorasp | 387 | 1 | 31 |
| Tuproqqal‘a | 234 | 3 | 45 |
| Xonqa | 510 | 2 | 118 |
| Xiva | 352 | 4 | 53 |
| Shovot | 561 | 1 | 23 |
| Yangiariq | 323 | 4 | 55 |
| Yangibozor | 461 | 1 | 53 |
| Urganch sh | - | 7 | 26 |
| Xiva sh | - | 1 | 28 |
| **Viloyat, jami** | **4417** | **36** | **859** |

## 2024 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Jami don** *(tonna)*

***Jami viloyat bo‘yicha***

**393 754**






**Boshoqli don** *(tonna)*

***Jami viloyat bo‘yicha***

**393 290**





**Bug‘doy** *(tonna)*

***Jami viloyat bo‘yicha***

**386 850**






**Kartoshka** *(tonna)*

***Jami viloyat bo‘yicha***

**148 074**






## 2024 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Sabzavot** *(tonna)*

***Jami viloyat bo‘yicha***

**103 778**






**Poliz** *(tonna)*

***Jami viloyat bo‘yicha***

**10 640**





**Meva va rezavorlar** *(tonna)*
*Jami viloyat bo'yicha*
**39 729**






**Uzum** *(tonna)*
*Jami viloyat bo'yicha*
**1 250**






## 2024- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

**Yirik shoxli qoramollar** *(bosh)*
*Jami viloyat bo'yicha* **962 171**






**Shu jumladan, sigirlar** (bosh)
*Jami viloyat bo'yicha* **361 898**





**Qo‘ylar va echkilar** *( bosh)*
***Jami viloyat bo‘yicha***
**494 587**






**Otlar** *( bosh)*
***Jami viloyat bo‘yicha***
**5 650**






**Parrandalar** *(ming bosh)*
**7 062,4**





## 2024 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Go'sht** *(tonna)*
***Jami viloyat***
***bo'yicha 98 491***






**Sut** *(tonna)*
***Jami viloyat***
***bo'yicha 570 465***






**Tuxum** *(ming dona)*
***Jami viloyat***
***bo'yicha 244 766***






**Jun** *(tonna )*
***Jami viloyat bo'yicha 658***





**Asal (tonna)**
***Jami viloyat bo‘yicha***
***479***






**Baliq (tonna)**
***Jami viloyat bo‘yicha 8 450,5***





## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**O‘rmon xo‘jaligi** – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo‘jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

**Fermer xo‘jaliklari** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.